



## SA'DIY SHEROZIY "GULISTON" ASARI YETTINCHI BOB "TARBIYANING TA'SIRI" BAYONI TAHLILII

**Qalandarova D.K**

*UrDU "Boshlang'ich ta'lim metodikasi"  
kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Sharq klassik adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Muslihiddin Sa'diy She'roziy (1184-1292). O'rta va Yaqin Sharq o'lkalarda Shayx Sa'diy nomi bilan mashhur. Uning ajoyib asarlari o'zbeklar orasida ham keng tarqalgan. "Guliston" va "Bo'ston" kabi axloqiy kitoblari eski o'zbek maktablarida darslik sifatida o'qitilar edi. Fors-tojik adabiyoti tarixida Sa'diyning mavqeい juda baland.

**Аннотация :** Одним из великих представителей Восточной классической литературы был Муслихиддин Саади поэт (1184-1292). В странах Среднего и Ближнего Востока он известен как шейх Саади. Его замечательные произведения также широко распространены среди узбеков. Книги по морали, такие как "Гулистан" и "Бостон", преподавались как учебники в старых узбекских школах. Положение Саади в истории персидско-таджикской литературы очень высокое.

**Annotation:** one of the great exponents of eastern classical literature is Muslihiddin Saadi's poetry (1184-1292). It is known as Shaykh Saadi in the middle and Middle Eastern regions. His remarkable works are also widely known among the Uzbeks. Moral books such as "Gulistan" and "Boston" were taught as textbooks in old Uzbek schools. In the history of Persian-Tajik literature, Saadi's position is very high.

*Insonni ta'lim – tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobiliyatni o'stirish mumkin.*

**Husayn Voiz Koshifiy**

Ta'lim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va shaxs,oila,jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab amalga oshiradigan shuningdek,ma'lum bilimlar,ko'nikmalar,qadriyatlar,tajriba va kompetentsiya yig'indisi bo'lgan intellektual,ma'naviy-ma'rifiy ta'limning yagona yo'naltirilgan jarayoni – shaxsning ijodiy,jismoniy va kasbiy rivojlanishi,uning ta'lim ehtiyojlari mahsulidir.

Tarbiya bugungi hayotimizdagi muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda.Qadim tariximiz namoyondalari ham bu haqda o'z mustaqil fikrlarini bildirib kelmoqdalar.Masalan, alloma, shoir va donishmandlar orasida mashhur va qomusiy talant egalaridan biri Kamoliddan Husayn Voiz Koshifiy o'zining pedagogik qarashlarida bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish masalasiga alohida e'tibor beradi. Ota – onalar muallimlardan bu masalaga alohida ahamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muhit muhim o'rin tutadi. Bola to'g'ri so'zli, va'daga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbiyanishi kerakligini aytadi.

Sharq klassik adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Muslihiddin Sa'diy She'roziy (1184-1292). O'rta va Yaqin Sharq o'lkalarida Shayx Sa'diy nomi bilan mashhur. Uning ajoyib asarları o'zbeklar orasida ham keng tarqalgan. "Guliston" va "Bo'ston" kabi axloqiy kitoblari eski o'zbek maktablarida darslik sifatida o'qitilar edi. Fors-tojik adabiyoti tarixida Sa'diyning mavqeい juda baland. U birinchi bo'lib g'azal formasini mustaqil janr darajasiga ko'tardi. Uning "Kulliyot" iga 4 devon (g'azallar to'plami) kiritilgan.

"Kulliyot"ga kiritilgan badiiy asarlar ichida eng mashhurlari 1257-yilda yozilgan "Guliston" asarlaridir.

"Guliston" o'ziga xos didaktik hikoyalar va she'riy aforizmlar to'plamidir. Kitob 8 bobdan iborat. Fors-tojik profasining klassik namunasi bo'lmish bu asar soddalik, original go'zallik, voqelikni to'g'ri yoritish bilan kitobxonni maftun etadi. Jahongashta shoир o'z hayotida ko'rgan, bilgan voqealarni bayon etib, ulardan axloqiy xulosalar chiqargan. Undagi qisqa-qisqa hikoyalarda dunyo-dunyo ma'no bo'lgani uchun ham bu kitob jahon adabiyotining oltin fondiga kirgan. Adabiyotshunoslar nazdida fors-tojik klassik poeziyasining eng porloq asari Firdavsiyning "Shohnoma" si bo'lsa, nasriy asarlarning eng barjashtasi "Guliston" hisoblanadi.

Bu ta'limiy asarda yozuvchi o'z davrida eng muhum va katta-katta siyosiy, iqtisodiy voqealarni aks ettirar, axloqiy normalarni talqin etar ekan, o'sha davr kishilarining xilma-xil obrazlarini yaratdiki, bu obrazlarning umumlashtiruvchi kuchi ham, ta'sir doirasida ham shoirning o'z yurti va davri chegarasidan chiqib ketadi. Uning ilg'or orzulari umumbashariyat orzulari bilan hamohang. Shuning uchun ham bu asarlar jahon adabiyoti durdonalari qatoridan joy olgan.

Sa'diy o'z zamonining yetuk pegagogi, dono, insondo'st, murabbiy shoiri, chuqur psixolog olimi bo'lgan.

Bu ulug' donishmandning keng va rango- rang ijodida biz yorqin misralar bilan bir qatorda u yashagan davrning qora tamg'asi tushgan dog'larni ham ko'razmiz.

«Guliston» sakkiz bobdan iborat bo'lib, uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha: debocha; birinchi bob - podshohlar siyrati zikrida: ikkinchi bob — darveshlar axloqi zikrida; uchinchi bob — qanoat fazilati zikrida; to'rtinchi bob sukut saqlashning foydalari zikrida; beshinchi bob — ishq va yoshlik zikrida; oltinchi bob — qarilik va zaiflik zikrida; yettinchi bob - tarbiyat ta'siri zikrida; sakkizinchi bob — suhbat odobi zikrida.

"Guliston" — fors-tojik didaktik adabiyotining cho'qqisi hisoblanadi. U «pandu nasihat va odob-axloq kitobi sifatida shuhrat qozongan... Umrining ko'p qismini sayohatlarda o'tkazgan, ko'p xalqlar, millatu elatlar hayotini kuzatgan, turli tabaqa kishilari bilan muloqotda bo'lgan Sa'diy ko'rgan-kechirganlarini, hayotiy tajribasini umumlashtirib, ularni yuksak badiiy shaklda, qisqa-qisqa, ammo g'oyat shirali, ta'sirchan musajja' nasriy jumlalar va she'riy baytlar bilan ziynatlab, o'ziga xos hikoyatlar to'plamini yaratgan. Ularda donishmand bir hakim insonning zakovati, nasihatlari ham, yengil hazil-mutoyiba, lutfu nuktadonligi ham, his-tuyg'ularga limmo-lim shoirona mahorati ham mujassam. Shu sababli har xil toifadagi, turli tab'li odamlar "Guliston"dan bahra ola biladilar" (N.Komilov).

Bir olim shahzodaga ta’lim berar, lekin uni kaltaklab, qattiq azoblardi. Bir vaqt shahzoda toqat qila olmay shikoyat qilgani otasi huzuriga bordi va ko‘ylagini ko‘tarib, majruh badanini ko‘rsatdi. Otasining yuragi achidi, muallimni chaqirib unga dedi: «Mening o‘g‘limga bergen bu aziyatining biror fuqaro farzandiga ravo ko‘rmaysan, buning sababi nima?» Muallim dedi: «Buning sababi shuki, andisha bilan gapirmoq va maqbul harakat qilmoq lozimdir. Bu qoida barchaga barobar, xususan, podshohlarga aloqadordir, chunki ularning qilgan ishlari va gapirgan gaplari tillarda doston bo‘lib ketadi, lekin avomning gapirgan gap-u xatti-harakati bunday ahamiyatga molik emas.

Darvesh agar yuz noma’qul ish qilsa,

Biriga ham do‘srlar qilmas e’tibor.

Ammo podshoh biror hazil so‘z desa,

Iqlimdan iqlimga o‘tadi takror.

Shuning uchun shahzodalarning ustozlari podshoh farzandlarining axloqini tarbiyalashda yanada ziyodroq sa‘yi harakat ko‘rsatmoqlari vojibdir».

Kimga yoshligidan berilmas odob,

Ulg‘aygach bo‘ladi baxtsiz, dili g’ash.

Ho‘l novda egilar qay xilda egsang,

Quruqni to‘g‘rilar faqat o‘t-otash.

Ustodning tutgan tadbiri va oqilona javoblari podshohga ma’qul tushdi. Podshoh unga libos va boshqa in’omlar berdi hamda martabasini oshirdi.

Tilla-kumush bari chiqsa ham toshdan,

Barcha toshda oltin bo‘lmog‘i gumon.

Suhayl nur sochadi har yoqqa birdan,

Bir yerda charm-u, bir yerda saxtiyon

Xulosa qilib aytganda, Muslihiddin Sa‘diy o‘zining — “Guliston” asarida inson kamolotining asosiy omillari sanalgan ma‘naviy-axloqiy hamda jismoniy kamolotga erishishning inson hayotidagi ahamiyati, ilm o‘rganishning o‘ziga xos afzalliklari, muayyan kasb yoki hunar o‘rganishning o‘ziga jihatlari, shuningdek, insonda axloqiy sifatlarni tarbiyalash masalalari xususida so‘z yuritadi. Bundan ko‘rinadiki, asrlar osha ham farzand, kelajak avlod tarbiyasi hali hanuz eng dolzarb muammo bo‘lib kelmoqda. Sa‘diy asarlarining tili sodda, uslubi lo‘nda, xalqona so‘zlar va obrazli ifodalarga boy, tashbehu timsollari hayotiy, she’riy san‘atlarni mahorat bilan qo‘llaydi, shaklan go‘zal, mazmunan teran, badiiy yuksak bu asarlarga o‘xshatib yozishga uringanlar ko‘p, lekin hech kim Sa‘diy darajasiga ko‘tarila olmagan. Shuning uchun ham fors-tojik adabiyotshunoslari uning uslubini «sahli mumtane», ya‘ni «oson u, imkoni yo‘q» deb ta‘riflaganlar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Pedagogika tarixi. 1-qism. (Tuzuvchilar: S.Nishanova, B.Hasanova) T., 2002.
2. Pedagogika tarixi. 2-qism. (Tuzuvchilar: S.Nishanova, B.Hasanova) T., 2002.
3. Hoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun qo‘ll. - Toshkent, O‘qituvchi, 1996.



4. Shomuhamedov Shoislom. Fors-tojik adabiyoti klassiklari (Sharq adabiyoti klassiklari haqida suhbatlar). - Toshkent, O‘zadabiynashr, 1963.
5. Sa‘diy, Muslihiddin. Guliston (Tarjimonlar G‘.G‘ulom, Sh.Shomuhamedov (nazm) va R.Komilov (nasr). Muharrir Vasfiy. – Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1963.